

Mahalliy budjet daromadlarini kengaytirishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Zikirov Samandar Usmonovich

Termiz davlat universiteti magistratura bosqichi talabasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy budjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5075-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash hamda mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarini maqbullashtirishda ularning manfaatdorligini oshirishni ta'minlaydigan mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish maqsadida:

- mahalliy budjetlar parametrlarining budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari, belgilangan normativlar hamda mazkur qaror asosida shakllantirilishi va ijro qilinishini monitoring qilish¹ ;

- budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvalini sifatli tuzilishi hamda uning ijrosi bo'yicha nazoratni ta'minlash;

- mahalliy budjetlarda aylanma kassa mablag'larining saqlanishi, daromadlar prognozining oshirib bajarilishi va erkin qoldiq mablag'lari miqdorlarining to'g'ri aniqlanishi ustidan monitoring qilish;

- mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarni normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda va muddatlarda Xalq deputatlari Kengashi va yuqori moliya organiga taqdim etilishini ta'minlash;

- mahalliy budjetlar hisobidan budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarini, shu jumladan, e'lonlar berish muddatlari belgilanishi hamda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilishi maqsadga muvofiqligini nazorat qilish.

Budjet tizimining har qaysi bo'g'iniga birlashtirilgan soliqlar o'ziga xos iqtisodiy mazmunga va umumiy davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. Ularni budjet daromadlaridagi salmog'i nuqtai nazardan tarkibiy isloh qilish davlat tomonidan olib borilayotgan budjet-soliq siyosatiga va iqtisodiyotni

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 24-son, 491-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2018 y., 06/18/5398/1004-son.

davlat tomonidan tartibga solishning instrumenti sifatida soliqlardan foydalanish darajasiga bog‘liqdir.

Davlat budjeti daromadlari tarkibida asosiy salmoqni bilvosita va bevosita soliqlar tashkil qilmoqda. Agar soliqlarni davlat budjeti tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi nuqtai nazardan ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak yuqoridagi bilvosita va bevosita soliqlarning asosiy qismi umumdavlat soliqlari va yig‘imlari hisobiga to‘g‘ri kelayotganligini kuzatishimiz mumkin. Demak, soliqqa tortish tizimi daromadlarni Respublika darajasida markazlashtirish yuqoriligicha qolayotganligini va shu bilan birga budjet ixtiyoridagi moliyaviy resurslarni «quyidan yuqoriga» qarab moliyaviy oqimlari bilan birgalikda moliyaviy tenglashtirish siyosatini amalga oshirish maqsadidagi «yuqoridan quyiga» yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar oqimlari ham sezilarli bo‘layotganligi tabiiy hol hisoblanadi. Daromadlarni markazlashtirishga ta’sir etuvchi omil hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovut va shunga asoslangan holda davlat ijtimoiy xizmatlarini hududlar kesimida tenglashtirish siyosatining ko‘lamiga bog‘liqdir.

Mahalliy budjetlar daromadlari manbalarini oshishi hisobidan, hududlarda barcha sohalarda qilinadigan xarajatlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi moliyaviy manbalar hisoblanadi². Biriktirilgan daromadlar – budjet huquqining sub’ektiga tegishli mablag‘lar, ya’ni budjetga to‘laligicha yoki qat’iy o‘rnatilgan ulushda doimiy ravishda kelib tushadigan mablag‘lardir.

«Mahalliy budjetlarni daromadlarini oshirish barcha soliq turlari tushishi hamda mahalliy budjetlar moliyaviy resurslari salmog‘ining o‘sishi ularning moliyaviy mustaqilligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi»³. «Shuningdek mahalliy budjetlarda daromadlarini oshirish hamda ijtimoiy iqtisodiy siyosatini samarali ijrosini ta’minlashda mahalliy soliqlar va yig‘imlar bir hil ta’sir darajasiga ega bo‘lishi kerak»⁴.

Bundan tashqari «Vazirlar Mahkamasining e’lon qilingan 29.06.2017 yildagi 445-son qarorida mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish rezervlarini aniqlashning batafsil mexanizmlari mustahkamlangan»⁵. «Shu maqsadlarda tumanlar

² <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

³ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

⁴ <http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211>

⁵ https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/mahalliy_byudjet_daromadlari_qanday_oshiriladi

moliya va soliq organlari 5 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikda ish olib boradi»⁶.

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i to‘lovchilarni va tushumlarni to‘liq qamrab olish.

Buning uchun soliq organlari va moliya bo‘limi xodimlari har bir ish kunida 25 tadan kam bo‘lmagan ob‘ektlarni borib ko‘radi. Fuqarolarning aniqlangan hisobga olinmagan ob‘ektlari va yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keyinchalik hisobga qo‘yish uchun “Ergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi organlariga uzatiladi. Shakllantirilgan qarzdorlar ro‘yxati soliq qarzlarini undirishda ko‘mak ko‘rsatish uchun ish beruvchilarga yoki ularning yuqori turuvchi organlariga yuboriladi»⁷.

2. Yakka tartibdagi tadbirkorlardan to‘lovlar tushushi ustidan nazorat doirasida:

- soliq organlarida hisobga qo‘yilmagan yollangan xodimlarni aniqlaydilar va ularni hisobga qo‘yishni ta‘minlaydilar;

- faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishning mavjudligi yuzasidan ularni kuzatadilar va to‘xtatib turgan tadbirkorlik faoliyatini qayta tiklash yuzasidan ko‘maklashadilar;

- soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida yirik miqdordagi pul aylanmalarini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatini tahlil qiladilar;

- rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan faoliyat turiga mos kelmaydigan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarni aniqlaydilar va ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan ta‘sir choralarini ko‘radilar;

- jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani belgilangan muddatlarda organlarga taqdim etmagan, shuningdek ushbu daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblangan JShDS summalarini to‘lamagan jismoniy shaxslarning ro‘yxatini shakllantiradi hamda soliq qarzini undirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralarini ko‘radi.

3. Investitsiya loyihalarini, Mahalliy lashtirish dasturi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish hisobidan tushumlarni oshirish.

⁶https://www.norma.uz/uz/kalendar_nalogoplatelshchika/qonunchilikda_yangi/nhh_loyihalari/kompaniya_yangiliklari/parlament_habarlari/bonus_va_aksiyalar/bonus_va_aksiyalar?page=217&limit=28

⁷https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/mahalliy_byudjet_daromadlari_qanday_oshiriladi

Bu vazifani bajarish uchun xodimlar har kuni o‘rtacha 2 ta ob’ektni o‘rganishlariga to‘g‘ri keladi. Investitsiya loyihalari va mahalliy lashtirish loyihalarining bajarilmayotganligi, ortda qolayotganligi sabablarini o‘rganadilar va o‘rganish yakunlari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosariga aniq takliflar kiritadilar. U loyiha tashabbuskorlari, banklar, moliya bo‘limlari, iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘limlari bilan birgalikda aniqlashtirilgan»⁸ tarmoq jadvallarining bajarilishi, shuningdek tegishli quvvatlarning ishga tushirilishi ustidan ta’sirchan monitoring o‘rnatadi.

4. Faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklash hamda past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilash.

Soliq organi xodimlari faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalariga boradilar va o‘rganadilar hamda mazkur korxonalarining ro‘yxatini tuzadilar, ularning faoliyati bo‘yicha materiallarni yig‘adilar. Keyinchalik aniqlangan mulkdorlarga nisbatan tegishli choralar ko‘riladi. Tegishli tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish yakunlari bo‘yicha past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarining ro‘yxati tuziladi.

Tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosari ushbu tashkilotlarning muassislari va rahbariyati, shuningdek boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish choralarini ko‘radi.

5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning o‘shirishini qisqartirish va mahalliy budjetlarga tushumlarni oshirishni ta’minlash ishlarini olib borish doirasida amalga oshirish.

Bu yo‘nalishda moliya bo‘limi va DSI har kuni:

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini tahlil qiladi va ularni qisqartirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;
- Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari oldidagi qarzlarni qisqartirish ishlarini amalga oshiradi»⁹ ;

Hududlarga daromadlar bo‘yicha vakolatlarni berish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida aholi turmush farovonligini oshirish bilan bog‘liq hududiy iqtisodiyot taraqqiyotini ta’minlash, hududlarni obodonlashtirish

⁸ https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/mahalliy_byudjet_daromadlari_qanday_oshiriladi

⁹ https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/mahalliy_byudjet_daromadlari_qanday_oshiriladi

hamda aholining ijtimoiy va maishiy ehtiyojlarini qondirish kabi mahalliy davlat hokimiyati funktsiya va vazifalarining kengayib borayotganligini bilan asoslanadi. Mahalliy budjet daromadlari bir tomondan ishlab chiqarish jarayonining ishtirokchilari o‘rtasida yalpi ichki mahsulot qiymatini taqsimlash natijasi hisoblansa, ikkinchi tomondan mahalliy ahamiyatga ega pul jamg‘armasini shakllantirishga xizmat qiluvchi qiymatdir.


«Respublikamizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali tashkil etilishi aksariyat hollarda davlat budjeti va uning daromadlari barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi»¹⁰. Ayniqsa bu borada mahalliy budjetlar o‘z hududida turli yo‘nalishdagi vazifalarini hal qilish uchun yetarli bo‘lgan moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lishlari lozim.

Shunga ko‘ra, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish va tushumlari barqarorligini ta‘minlash zaruratining mavjudligi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlashda soliqlarning amal qilishini taqozo etadi. Mahalliy budjetlarning o‘z daromadlari asosiy qismini soliqlar tashkil etgani holda, ular tarkibida yer solig‘i o‘zining o‘rni va roli bilan ajralib turadi.

**Research Science and
Innovation House**

¹⁰ http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31489498&mode=ppage=2

1.3.1-rasm



Yuqoridagilar bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joyning xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilash huquqi berilgan (Qonun,2019). Bugungi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash va imtiyozlarni qo‘llash borasida yuqorida qayd etilgan tartiblar bilan bog‘liq bir qator muammo va kamchiliklar mavjud bo‘lib, jumladan ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, tumanlar markazidagi mavjud infratuzilma bilan qishloq aholi punktlaridagi infratuzilma bir-biridan keskin farq qilsada qonunchilikda yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘ining stavkalari tuman markazlari hisoblangan posyolkalar va qishloq aholi punktlari uchun bir xilda belgilangan.

¹¹ Muallif ishlanmasi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

Ikkinchidan, yer uchastkalaridan foydalanish huquqini ro‘yxatga oluvchi davlat organlari tomonidan dehqon xo‘jaliklari yerlarida o‘tkazilgan bonitirovka (tuproq bonitetini aniqlash) ishlari hamda shahar va tuman markazlarining ma‘muriy chegarasidan boshlab qishloq joylarda dehqon xo‘jaligini yuritish hamda jamoa bog‘dorchiligi va polizchiligi bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan yer uchastkalarigacha bo‘lgan masofa haqidagi ma‘lumotlarni soliq organlariga tizimli ravishda taqdim etilmasligi soliq stavkalariga nisbatan belgilangan koeffitsiyentlarni qo‘llash imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda. Natijada ushbu holat mahalliy budjetlarning daromadlar barqarorligiga va soliq tushumlariga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Uchinchidan, yer solig‘ini hisoblashda hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joyning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga tegishli tarzda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar (0,7-1,3) belgilash tartibining mavjud emasligi, mazkur me‘yorning amalda ishlamasligiga (samarasizligiga) sabab bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan, dehqon xo‘jaligini yuritish hamda jamoa bog‘dorchiligi va polizchiligi bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan yerlardan (ayniqsa sug‘oriladigan yerlardan) daromad olish maqsadida foydalaniladigan bo‘lsada, ushbu yerlardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari miqdori uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun belgilangan stavkalar miqdoridan ancha kichik miqdorda belgilangan. Aslida dehqon xo‘jaligini yuritish hamda jamoa bog‘dorchiligi va polizchiligi bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan sug‘oriladigan yerlarga nisbatan soliqning stavkasi yuqoriroq bo‘lishi lozim.

Research Science and
Innovation House